

**SARIOSIYO TUMANI AHOLISI SALOHİYATI DINAMİKASI VA
ULARDAN MEHNAT RESURSI SIFATIDA FOYDALANISH
MASALALARI**

Abdimo‘minov Tog‘oy nazar Abdinaxat o‘g‘li

Termiz davlat pedagogika instituti

Texnologiya va geografiya kafedrasi o‘qituvchisi

Mahkamova Madinabonu Dilshod qizi

Termiz davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqola Sariosiyo tuman aholisi, milliy va etnik tarkibi, aholining xo‘jalikdagi faoliyati haqida ma‘lumotlar berilgan. Shuningdek, tuman aholisini mehnat resursi sifatida baholash, aholining bandlik darajasi va ishsizlik masalalariga to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: aholi soni, tug‘ulish, aholining yosh tarkibi, aholining etnik tarkibi, mehnat yoshidagi aholi, aholining bandlik darajasi.

**ДИНАМИКА ПОТЕНЦИАЛА НАСЕЛЕНИЯ САРИАСИЙСКОГО
РАЙОНА И ВОПРОСЫ ЕГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ В КАЧЕСТВЕ
ТРУДОВОГО РЕСУРСА**

Аннотация: В данной статье представлена информация о населении, национальном и этническом составе, хозяйственной деятельности населения Сариасийского района. Также затронуты вопросы оценки населения района как трудового ресурса, уровня занятости населения и безработицы.

Ключевые слова: численность населения, рождаемость, возрастной состав населения, этнический состав населения, численность населения трудоспособного возраста, уровень занятости населения.

**ISSUES OF POTENTIAL DYNAMICS OF THE POPULATION OF
THE SARIASIYA DISTRICT AND THEIR USE AS A LABOR RESOURCE**

Annotation: this article provides information about the population, National and ethnic composition of the Sariosiya district, about the activities of the population on the farm. It also touched on the issues of assessing the population of the district as a labor resource, the level of employment of the population and unemployment.

Keywords: population, birth, age composition of the population, ethnic composition of the population, population of working age, employment level of the population.

Kirish. Aholi–takror barpo bo‘luvchi biologik organizm hisoblanadi. Tug‘ilishning yuqoriligi ma’lum hududlar uchun arzon ishchi kuchi sifatida ijobiy qaralsa, aksariyat mamlakatlar uchun ishsizlik darajasining oshib borishiga, ta’lim, sog‘liqni saqlash kabi ijtimoiy sohalar rivojlanmagan hududlar uchun salbiy masalalarni keltirib chiqaruvchi kuch sifatida qaraladi. Ma’lum bir hudud aholisini o‘rganishda unga ishchi kuchi, mehnat resursi sifatida qarash muhim omillardan hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Surxondaryo viloyatida 2025 yil 1-yanvar holatiga ko‘ra 2 945 500 kishi istiqomat qilmoqda. Shundan, eng ko‘p aholiga ega bo‘lgan tumanlarga Denov (420,2 ming), Jarqo‘rg‘on (238,3 ming), Sho‘rchi (228,5 ming), Qumqo‘rg‘on (255,5 ming) tumanlari kiradi. Mazkur tumanlarda viloyat aholisining 39,7% qismi yashaydi (1-jadval).

Birgina Sariosiyo tumanida viloyat aholisining 7,9 % qismi yashaydi. Ammo tumanning urbanizatsiya ko‘rsatgichi viloyat urbaniztsiya ko‘rsatgichidan ancha past. Urbanizatsiya darajasi past tumanlarga Bandixon (17,9 %), Sariosiyo (19,1 %), Jarqo‘rg‘on (19,9 %), Uzun (23,2%), Qiziriq (26,5%), Sherobod (29,8 %) tumanlari kiradi. Mazkur tumanlarda rbanizatsiya ko‘rsatgichlari 30 % ga ham yetmaydi.

Viloyatdagi Angor (48,5 %), Boysun (41,8 5), Oltinsoy (40,2 %) tumanlarida shaharlarda yashovchi aholi salmog‘i viloyat urbanizatsiya

ko'rsatgichlaridan ancha yuqori. Qolgan qishloq tumanlarida urbanizatsiya ko'rsatgichlari 30-40 % atrofida.

1-jadval.

Surxondaryo viloyati hududlari bo'yicha aholi sonining taqsimlanishi (ming kishi hisobiga)

	Jami aholi (01.01.2025)	Shu jumladan		Urbanizatsiya darajasi (% hisobida)
		Shahar aholisi	Qishloq aholisi	
Surxondaryo viloyati bo'yicha	2945,5	1064,1	1881,4	36,1
Termiz shahri	207,3	207,3	0	100
Oltinsoy tumani	197,4	79,3	118,1	40,2
Angor tumani	147,0	71,3	75,7	48,5
Bandixon tumani	85,3	15,3	69,9	17,9
Boysun tumani	127,1	53,2	73,8	41,8
Muzrabot tumani	156,8	57,3	99,5	36,5
Denov tumani	430,5	151,7	278,8	35,2
Jarqo'rg'on tumani	244,0	48,7	195,3	19,9
Qumqo'rg'on tumani	261,6	84,8	176,8	32,4
Qiziriq tumani	126,9	33,7	93,2	26,5
Sariosiyo tumani	232,9	44,5	188,4	19,1
Termiz tumani	87,2	27,2	60,0	31,2
Uzun tumani	192,4	44,7	147,7	23,2
Sherobod tumani	214,9	64,1	150,8	29,8
Sho'rchi tumani	234,2	80,8	153,4	34,5

Manba:Jadval ma'lumotlari Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tahlil qilindi.

Sariosiyo tumanida 2025 yil 1-yanvar holatiga ko'ra 232900 kishi istiqomat qilmoqda. Bugungi kunda tumanda 18 ta millat vakillari ahil-inoq bo'lib istiqomat etmoqdalar. Jumladan o'zbeklar 58%, tojiklar 39% ni tashkil etsa, bundan tashqari rus, ukrain, tatar, koreys, arman, afg'on, lo'li, qozoq, polyak millatlariga mansub aholi ham bor [1; 6-bet].

Tadqiqot metodologiyasi. Sariosiyo tumani 61 ta mahalla fuqarolar yig'inidan iborat bo'lib, eng katta mahalla fuqarolar yig'ini hududi 10 000 gektarga yaqin bo'lsa eng kichigi 32 gektar atrofida hududga ega. Qiziqarli holat shundan iboratki, eng kichik beshta mahalla fuqarolar yig'ining to'rttasidan

Sharg'un shahri tarkib topgan. Buning sababi ushbu kadastr massivlarida aholi zichligi katta va qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar mavjud emas. Masalan, Sharg'un shahrida joylashgan eng kichik mahalla fuqarolar yig'ini yani kadastr massivi sifatida qayd etilgan Madankon mahallasida 1118 ta turar joy fondidagi ko'chmas mulk obyekti mavjud bo'lsa, eng katta kadastr massivi bo'lgan Chosh mahalla fuqarolar yig'inida esa atigi 264 ta yakka tartibdagi turar joy yer uchastkalari mavjud. Bundan ko'rinib turibdiki aholi zichligi shahar hududlarida zich, tog'li hududlarda juda siyrak joylashgan.

Tahlil va natijalar. Tuman qishloq xo'jaligida paxtachilik, g'allachilik, chorvachilik taraqqiy etgan. Aholining asosiy qismi qishloq xo'jaligida band. Sanoat ham tumanda salmoqli o'rin tutadi. Sharg'un toshko'mir koni, marmar, fosfor konlari, rux foydali kazilmalari mavjud. Sariosiyo tumanida bugungi kunda 3 ta qo'shma korxona, 34 ta kichik korxona, 2 ta temirbeton buyumlari korxonasi, 2 ta shag'al saralash zavodlari, 1 ta Sariosiyo parrandachilik korxonasi faoliyat yuritmoqda. Mazkur korxonalarda mehnatga yaroqli aholining asosiy qismi band. Qo'shma korxonalardan „Miftox“ O'zbekiston-Rossiya, „Lajer“ O'zbekiston-Tojikiston (pivo ishlab chiqaradigan) korxonalari ishlab turibdi. Tuman hududidan Kalif - Termiz - Sariosiyo - Tojikiston „Do'stlik“ tabiiy gaz quvuri hamda Termiz-Dushanbe temir yo'li o'tgan. Bu esa aholining yashash tarziga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Tumanda 11 ta shirkat, 229 ta fermer va dehqon xo'jaliklari faoliyat ko'rsatadi. Tumanda Uzun o'rmon xo'jaligi, Hisor dorivor o'simliklar xo'jaligi, asalchilikka ixtisoslashgan xo'jalik mavjud. 2003 yilda Tuman hududining 5765 ga maydonga paxta, 3300 ga maydonga g'alla, shuningdek, sabzavot, beda, yem-xashak ekinlari ekilgan. Tumanda meva va uzum yetishtiruvchi xo'jaliklar ham bor. Tuman jamoa va shaxsiy xo'jaliklarida 51 ming bosh qo'y va echki, 7 ming bosh ot boqiladi, shuningdek, qoramol, parrandachilik fermalari ham bor. Yirik hisor qo'ylari yetishtiriladi. Ekinzorlar Hasanxon kanali, Katta va Kichik Damariq kanallaridan sug'oriladi.

Tumanda 2022 yilda 43 ta maktabgacha ta'lim tashkiloti (7181 nafar tarbiyalanuvchi), 2024 yilda 92 ta umumiy o'rta ta'lim maktabi (44377 nafar o'quvchi), 1 ta texnikum (726 nafar o'quvchi), 1 ta kasb hunar kolleji (256 nafar o'quvchi), 1 ta kasb-hunar maktabi (256 nafar o'quvchi) faoliyat ko'rsatadi. Sariosiyo tumanida 25 ta ambulator-poliklinikalar, 6 ta mehmonxona, 4 ta shifoxona muassasasi, 41 ta kutubxona, 3 madaniyat uyi, 11 klub, xalq teatri, ashula va rake ansambli ishlab turibdi. Stadion va boshqa muassasalar mavjud. Bundan tashqari Xondiza dam olish majmuasi aholiga xizmat ko'rsatadi. Tuman hududi orqali Toshkent -Dushanbe, Uzun -Sharg'un poyezdlari o'tadi. Tuman markazidan Termiz, Toshkent shaharlariga avtobuslar qatnovi yo'lga qo'yilgan.

Sariosiyo tumanining Qorovultepa hududidan topilgan buyumlar bu yerda milodning I-III asrlarida ham madaniy hayot mavjud bo'lganidan guvohlik beradi. Ilk o'rta asrda (V-VIII asrlar) tuman xududida bir qancha qal'a – shaharlar mavjud bo'lgan. Bulardan yiriklari: Kultepa, Nonvoytepa, Xumdontepa, Xo'roztepa, Kofirqal'a (Navandaqtepa), Qo'rg'ontepa, Boburtepa, Beshkapa, Hisortepa va boshqalar. Tumanning tog'li qismida yuqori paliolit, must'e davriga oid manzillar (Xushdara, Podaxona, Namozgoh, Qo'rg'onjuvoz, Darianhor va boshqalar) uchraydi. X-XII asrlarda Xumdontepa juda rivojlangani haqida ma'lumotlar bor. Arab - fors manbalarida tilga olingan Xumdon qishlog'i shu joy o'rniga to'g'ri keladi.

Sharg'un shahri 1973-yil tashkil etilgan. Aholisi 12 mingdan ortiq. Hisor tog'larining yonbag'ridagi xushmanzara yerda joylashgan. Sharg'un ko'mir koni 1941-yilda o'rta va yuqori yura davriga mansub ko'mir yotqiziqlari ichida topilgan. Shahardagi asosiy jamoat binolari shu konning faoliyati bilan bog'liq. Shahardan Sharg'un ko'mir konigacha osma sim yo'li o'tkazilgan. Uylar asosan bir qavatli. Shaharning shimoliy qismida Shahtiyor ko'chasi bo'ylab ikki qavatli uylar qurilgan. Shaharda bir necha bilim yurtlari, musiqa maktabi, kinoteatr, savdo rastalari, istirohat bog'i bor. Tumanda ko'plab yirik inshootlar korxonalar, kichik korxonalar qurilishi jadal davom etmoqda. Keyingi vaqtda neft mahsulotlari

bazasi, un zavodi majmuotini o'z ichiga olgan yirik tayorlov korxonasi, yangi paxta zavod, maktablar, agrobank, xalq banki binolari qurildi.

Xulosa va takliflar. Sariosiyo tumani viloyatda eng tez aholi soni o'sayotgan tumanlardan hisoblanadi. Tumanda 2023 yilda iqtisodiy faol aholi soni 84900 kishini, ishsizlar soni 6400 nafarni, ishsizlik darajasi esa 7,7% ni tashkil etgan. Ishsizlik darajasi viloyat ko'rsatkichidan 0,2 % ga ko'p. Ishsizlik darajasi ko'rsatkichlarini pasaytirish uchun tumanda ish o'rinlari sonini ko'paytirish, maktab bitiruvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish, faoliyati to'xtagan korxonalar faoliyatini yo'lga qo'yish, aholiga imtiyozli kreditlar berish orqali o'zini-o'zi band qilishni yo'lga qo'yish mumkin. Mazkur ishlar bajarilsa tuman aholisi orasida ishsizlik ko'rsatkichlari sezilarli darajada kamayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.Xoliqov N., Mingboyev K., Minqulova Sh. "Sariosiyo" risola. Muharrir nashriyoti, T.: 2013. 50 b.
- 2.Abdimo'minov, T. O., & Sulaymonov, S. (2025). Kichik hududlarda aholi tabiiy ko'payishining salbiy va ijobiy tomonlari (Denov tumani misolida). *MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI JURNALI*, 3(3).
- 3.Abdimo'Minov, T. A., & Abduxoliqova, M. A. (2022). SAMARQAND VILOYATI AHOLISI JOYLASHUVINING HUDUDIY JIHATLARI. *Экономика и социум*, (12-1 (103)), 4-8.
- 4.surxonstat.uz